

KO'KLAM TUHFASI — YUKSAK E'TIBOR YANGICHA IJODKORLIKKA UNDAYDI

G'ulomjon YOQUBOV,
O'zbekiston xalq artisti,
“Buyuk xizmatlari uchun”
ordeni sohibi

Boshlanishi 1-betda

“O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist”, “O'zbekiston xalq artisti” unvonlarini olganimda “ko'p san'atkorlar unvonga erishsa bo'ldi, ijodni to'xtatib qo'yadi” deganday gaplar o'zimga ham aytilgan, OAVlarda ham yozilgan. O'shanda “Men ijodimni endi boshladim, to'xtaydigan odam emasman”, deb javob bergan edim. Xayriyatki, shu paytgacha jonli ijroda bemalol kuylash baxtidan ayro bo'lmadim. Chunki har bitta mukofot, har bir e'tibor yangi kuch, yangi g'ayrat bag'ishlaydi. Shuning uchun bunday qo'llovni, ishonchni sira suiste'mol qilib bo'lmaydi. Sidqildan elga xizmat qilayotgan insonlarni e'zozlashning amaldagi ifodasi bu. Shu ma'noda, umrimning oxiriga qadar o'zbek san'atini ko'tarishga, xalqimiz nomini ulug'lashga xizmat qilaman.

Qariyb 30 yildan buyon konsert berib kelayotgan bo'lsam, zal to'lmay qolgan, tomoshabinlar chiqib ketgan holat bo'lmaganiga shukrona aytaman. Ijodiy jamoamiz bilan har bir repertuarimizni



imkon qadar yangilab, boyitishga harakat qilib kelyapmiz. Bu safar ham 20 ga yaqin yangi qo'shiq ijro etildi. Biroq muxlislar “Dilorom”ni aytmagunimcha qo'ymadi. Xursand bo'ldim. Necha yil avvalgi qo'shiqlaringiz bugun ham yashasa, tomoshabin so'rab tursa, bundan ortiq baxt bormi? Vaholanki, bugun har kim suyan oshini ichadi. Birov birovni majburlaydigan zamon emas.

Davr o'zgaryapti, hayot jadallashdi. Shunga qarab yangi O'zbekiston ham baland marallarni olib, dadil odamlamoqda. Davlatimiz rahbari butun bir yil nomini atrof-muhitni obodonlashtirish, tabiatni asrashga bag'ishladi. Nasib qilsa, yil nomi haqidagi

qaror, dastur ijrosi sabab yurtimiz yanada go'zallashadi, ko'chalarimiz yashillanadi.

Odamlar ham shunga qarab intilishi, yuksak madaniyatli bo'lishi, yangicha turmush tarziga moslashishi, yangicha ishlashi kerak. Zero, ishlagan odam sira chetda qolib ketayotgani yo'q. Shuncha o'y-tashvish, davlat ishlaridan ortib, Prezidentimiz biz kabi ijodkorlarni kuzatib, munosib taqdirlayotgani tahsinga loyiq.

Ayniqsa, madaniyat va san'atga har qachongidan katta e'tibor berilayotganidan biz, soha vakillari cheksiz minnatdormiz. Prezidentimizning 2022-yil 2-fevraldagi “Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori bilan yosh san'atkorlar, ijodkorlarga qaratilgan e'tibor samarasini bugun yaqqol ko'rib turibmiz. Bunday ishlar sohada bo'lmagan edi. Yosh san'atkorlar, madaniyat xodimlari uyli-joyli, qo'shimcha ishli bo'laman degan ezgu niyat bilan mehnat qilaypti. Zero, sohadagi ishlar, huquqiy hujjatlar ularda ertangi kunga ishonch uyg'otaypti.

Biz, katta avlod vakillari esa necha yillik boy tajribamizdan kelib chiqib shakllantiradiganimiz — “Mahorat maktabi” orqali ko'plab umidli yoshlar kelajagida muhim o'rin tutishimizni his qilishimiz darkor. Sahna tabarrukligini, uni chin dildan sevish, san'atkor o'z madaniyatiga ega bo'lishi kerak ekanini yoshlarga singdirishdan ko'p manfaat topamiz. Chunki ustoz ko'rmaning ayrim yoshlar san'at olamida milliyligimiz, qadriyatlarimizga yot xatti-harakatlar qilib turgan holatlar ham yo'q emas. San'atkor etikasiga rioya etish, o'z ustimizda ishlash, izlanishdan to'xtamaslik bilangina ularga namuna bo'lishimiz mumkin. Shu bois, mukofotni olgan kunim katta sahnada turib va'da berdim: san'atsevar xalqimizga betakror qo'shiqlar taqdim etish yo'lida bundan buyon ham o'z kuch-g'ayratimni ayamayman. Nasib qilsa, vatan, mehr-u sadoqat, insoniylik, go'zallikni tarannum etadigan qo'shiqlar yarataman.

“

MUKOFOTNI OLGAN KUNIM KATTA SAHNADA TURIB VA'DA BERDIM: SAN'ATSEVAR XALQIMIZGA BETAKROR QO'SHIQLAR TAQDIM ETISH YO'LIDA BUNDAN BUYON HAM O'Z KUCH-G'AYRATIMNI AYAMAYMAN. NASIB QILSA, VATAN, MEHR-U SADOQAT, INSONIYLIK, GO'ZALLIKNI TARANNUM ETADIGAN QO'SHIQLAR YARATAMAN.

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Mer Jan–Pol Garsiya Robin:

“SHAHRIMIZDA BUYUK ASTRONOM OLIM HAYKALINI O'RNATISHGA ISHONCH BILDIRGANINGIZDAN MAMNUNMAN”

Fransiyaning Grets–Armenvil shahrida Abu Rayhon Beruniy haykali ochildi

1-mart kuni Fransiyaning Grets–Armenvil shahridagi “Uranoskop” rasadxonasi hududida buyuk mutafakkir va qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy haykalining ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Tadbirda Grets–Armenvil shahri ma'muriyati, “Uranoskop” observatoriyasi rahbariyati va mahalliy jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

Parijdan 32 kilometr uzoqlikda Il-de-Frans hududida joylashgan Grets–Armenvil shahri mahalliy va xorijlik sayyohlar uchun jozibador manzil hisoblanadi. Shahar Château d'Armainvilliers qal'asi, Sent-Jan-Baptista cherkovi, Armenvil milliy bog'i va boshqa diqqatga sazovor joylari bilan mashhur.

“Uranoskop” rasadxonasi 1983-yilda tashkil etilgan. U Parij rasadxonasi va Universite Paris-Saclay bilan hamkorlikda Quyosh tizimining kichik jismlarini, shuningdek, meteoritlarni o'rganish dasturi doirasida faoliyat yurituvchi ilmiy markazdir.

Abu Rayhon Beruniy haykalining ochilish marosimida Grets–Armenvil shahri meri Jan-Pol Garsiya Robin, “Uranoskop” observatoriyasi prezidenti Kristian Bourdi va O'zbekiston elchisi Nodir G'aniyev so'zga chiqdi.

Jan-Pol Garsiya Robin,
Grets–Armenvil shahri meri:

— Buyuk o'zbek qomusiy olimi Abu Rayhon Beruniy haykalining ochilishi Grets–Armenvil shahri uchun katta voqeadir. Ushbu yodgorlikni o'rnatishda har tomonlama yordam bergan O'zbekiston hukumatiga shahrimiz aholisi nomidan samimiy minnatdorlik bildiraman. Shuningdek, ushbu yodgorlikni yaratgan fransuz haykaltaroshi Missor Movaxedga ham tashakkurimizni izhor etamiz.

28-fevral kuni biz har 100 yilda bir marta sodir bo'ladigan ajoyib voqea — Quyosh tizimidagi sayyoralarimiz bir xil tekislikda aylanishiga guvoh bo'ldik. Bugun esa shahrimizda buyuk astronom Abu Rayhon Beruniy haykali ochildi. Bu voqealar ramziy ma'noga ega deb o'ylayman.

Kristian Bourdi,
“Uranoskop” rasadxonasi prezidenti:

— 1-mart sanasi O'zbekiston va Fransiya o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilgan kun sifatida tarixda muhrlangan. Ushbu sana O'zbekiston — Fransiya do'stligini mustahkamlaydi. Fransuzlar o'zbek xalqiga, uning boy tarixiga, betakror madaniyatiga hurmat bilan yondashadi. Tarixiy Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlari fransuz sayyohlarini o'ziga faol jalb etmoqda. Yurtimizga borayotgan fransuz sayyohlari soni ham yildan yilga oshib borayotir.

Fransuzlar tarix, qadimiy meros va madaniyatga juda qiziqadi. Shuning

qo'shgan Abu Rayhon Beruniy hayoti bilan tanishdi. Beruniy astronomiya, matematika, falsafa, geografiya, etnografiya, antropologiya, geologiya, botanika, farmakologiya kabi fanlarni chuqur o'rgangani va ular haqida ko'plab kitoblar yozgani bildirildi.

Beruniy Yerning aylanishi haqidagi ilk nazariyalarni ilgari surgan va uning radiusini to'g'ri aniqlagan.

Hozirgi kunda Beruniy qalamiga mansub ayrim asarlarining asl nusxalari Fransiya tibbiyot akademiyasida saqlanmoqda.

O'zbekistonda Abu Rayhon Beruniyning ilmiy-ma'rifiy merosini o'rganish va keng tarqatib yetishga katta e'tibor qaratib kelinmoqda. Qayd etilganidek, buyuk olimning ilmiy kashfiyotlarini o'rganish va ommalashtirishga qo'shgan hisssasi uchun Abu Rayhon Beruniy nomidagi UNESCO — O'zbekiston xalqaro mukofoti ta'sis etilishi mamlakatimiz rahbariyatining yorqin tashabbuslaridan biri bo'ldi.

O'zbekistonda Abu Rayhon Beruniyga bag'ishlangan turli ilmiy forumlar, konferensiyalar va ko'rgazmalar o'tkazish bo'yicha tashabbuslar ham faol ilgari surilmoqda. Jumladan, 2023-yilning 4-6-sentabr kunlari UNESCOning Parijdagi bosh qarorgohida olim tavalludining 1050 yilligiga bag'ishlangan yirik ko'rgazma tashkil etildi.

uchun ular O'zbekistonga borish va ajoyib mamlakatimizni kashf etishdan doimo xursand bo'ladi. Grets–Armenvil shahrida Abu Rayhon Beruniy haykali o'rnatilishi ana shu boy madaniyatimiz asrlar osha ta'siridan dalolat, chunki gap bundan ming yil avval yashab o'tgan olim haqida ketmoqda. Ushbu yodgorlik haqiqatan ikki tomonlama munosabatlarimiz tarixiga, shuningdek, Abu Rayhon Beruniyning jahon ilm-fani va sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan hissasiga ko'rsatilgan hurmat belgisidir.

“Dunyo” AA
Grets–Armenvil shahri

Qadriyatlarining boqiy bo'lsin, Navro'z!

SHUKRONALIK, RUHIY POKLANISH VA EZGU NIYATLAR FASLI

Bahor. Borliqdan uyg'onish nafasini ilg'ash qiyin emas. Qishning izg'irini o'z o'rmini bahor nasimiga, abru naysoniga bo'shatmoqda. Ha, bahor — Navro'zning debochasi. Tabiat uyg'onishiy inson qalbining yangilanish davri. Olam va odam uyg'unligining eng yuksak ifodasi.



Navro'z bayramining shakllanishi miloddan avvalgi X asrlarga borib taqaladi. Bu ma'lumot yozma manbalarda qayd etilmagan bo'lsa-da, xalq og'zaki ijodida saqlanib qolgan. Navro'z — yil boshi, sharqona yangi yil. Faqat fasl almashinuvi emas, balki shukronalik, ruhiy poklanish va ezgu niyatlar davri. Shu bois, biz uni sog'inamiz. Alohida taraddud bilan qarshi olamiz.

O'zbekiston Fanlar akademiyasi Astronomiya instituti katta ilmiy xodimi Kamoliddin Ergashevning aytishicha, har yili 19-21-mart oralig'ida Yer shari o'z orbitasining bahorgi teng kunlik nuqtasi deb ataladigan qismidan o'tadi. Aynan mana shu qismga yetib kelganda kun bilan tunning tenglashishi yuz beradi. Bu yil Yer sharining bahorgi teng kunlik nuqtasidan o'tishi 20-martdan 21-martga o'tar kechasi — Toshkent vaqti bilan 22:30 lar atrofida yuz beradi.

Bu yilgi Navro'z ayyomini yangi O'zbekistonning bugungi salohiyati va nufuziga har tomonlama munosib tarzda nishonlash maqsadida Prezidentimizning “2025-yilgi

Navro'z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida”gi qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq, joriy yilgi Navro'z umumxalq bayrami mamlakatimizda “Qadriyatlarining boqiy bo'lsin, Navro'z!” degan bosh g'oya asosida umumxalq sayillari shaklida keng nishonlanadi.

Xalqimizni yaqindan bilmog'chi bo'lgan odam yurtimizga Navro'z payti kelsin. Shunda tarixni, bugun va kelajakni mujassam holatda ko'radi. Haqiqatan, ko'pmillatli xalqimizning hamjihatligi, turfa urf-odatlari, boy ma'naviy merosi, kelajakka ishonchini hech bir bayram Navro'zchalik aks ettira olmasa kerak. Shu jihatdan u qadimiy va navqiron bayramdir.

— Navro'z o'ziga xos xususiyatlari bilan ko'pmillatli jamiyatlar orasida tutuvlik va hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qilishi bilan ham ahamiyatlidir, — deydi Turkman milliy madaniyat markazi raisi Guldona Avezdurdyeva. — Prezidentimizning bu yilgi Navro'zni nishonlashga doir qarorida yurtimizda yashayotgan

turli millat va elat vakillarining milliy urf-odatlari, an'ana va qadriyatlarini keng namoyish qilish ham alohida qayd etilgan. Ana shunday ezgu chorlovga javoban biz — turli millat va elat vakillari bayram munosabati bilan o'tkaziladigan obodonlashtirish, “Yashil makon” umummilliy loyihasida belgilangan tadbirlar, umumxalq hasharlarida faol ishtirok etamiz. Shuningdek, bayram tadbirlarida milliy qadriyat va an'analarimizga mos ommaviy sayillarda ishtirok etish uchun puxta tayyorgarlik ko'ryapmiz.

Ayniqsa, bu yilgi Navro'z muqaddas Ramazon oyida nishonlanishini inobatga olsak, bayramning shukuhiy tarovatini ilg'ash qiyin emas. Ayni jihatlar qarorda ham o'z ifodasini topgan. Unga muvofiq, keksa avlod vakillari, ijtimoiy datfarlarga kiritilgan hamda ko'makka muhtojlar holidan xabar olinadi, ular uchun bayram dasturxonlari yoziladi.

Bu yil Navro'zni “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida qarshi o'laypmiz. Bu ham bayram falsafasiga hamohang. Shu bois, “Yashil makon” umummilliy loyihasida belgilangan tadbirlar doirasida yurtimizning barcha hududlari — ko'cha, mahalla, tuman va shaharlarda obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari, umumxalq hasharlari o'tkaziladi.

Qarorda belgilanganidek, bayram tadbirlari doirasida hunarmandchilik ko'rgazmalari, milliy sport turlari bo'yicha musobaqalar, kitob ko'rgazmalari, arzonlashtirilgan qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari yarmakalari, ko'chma savdo do'konlari, milliy taomlar tanlovlari tashkil etiladi.

Bayram tadbirlari doirasida har bir hududga xos xalq o'yinlari, tomoshalar, ko'rgazmalar o'tkaziladi. Bahoriy taomlar sotiladigan ochiq oshxonalar tashkil qilinadi. Zero, qarorda manfaatdor vazirlik va idoralarda bayram tantanalarini ko'tarinki va yuqori saviyada o'tkazish, milliy qadriyat va an'analarimizni keng miqosda tarannum etish bilan bog'liq vazifalar belgilab berildi.

Lutfulla SUVONOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

Inson qadri uchun

TO'SIQLARGA CHEK QO'YADI

RAQAMLI RIVOJLANISH MEHNAT MUNOSABATLARIDA ANA SHUNDAY AHAMIYAT KASB ETMOQDA

Mamlakatimizda so'nggi yillarda mehnat sohasidagi qonunchilik tubdan takomillashmoqda. Natijada aholi bandligi darajasi yaxshilanib, daromadi ortyapti. Xususan, Jahon banki bilan hamkorlikda bu yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, o'tgan yili aholining real daromadi 10,7 foiz o'sib, jon boshiga oyiga o'rtacha 2,1 million so'mdan to'g'ri keldi.

Aholi daromadlari tarkibida ish haqi 42,6 foizni tashkil etib, 2023-yildagidan 12,9 foiz ko'paydi. Oilalarning iqtisodiy farovonligi yaxshilanib borayotgani kambag'allik darajasini kamaytirishda ham yaxshi samara bermoqda. Xususan, 2024-yil yakuni bo'yicha kambag'allik darajasi 11 foizdan 8,9 foizga kamaydi.

Qisqa muddatda bunday salmoqli natijalarga erishish o'z-o'zidan bo'lgani yo'q, albatta. Odamlarning muammolarini tinglash, ularga o'z vaqtida yechim topish, har bir inson o'zi tanlagan sohada mehnat qilishi, tadbirkorlik bilan shug'ullanishi uchun zarur sharoit va keng imkoniyatlar yaratishga yo'naltirilgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar bu boradagi yutuqlarga zamin bo'lmoqda.

“O'zbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturida bu jabhada yanada keng qamrovli vazifalar belgilangan. Ularni o'z vaqtida va samarali hayotga tatbiq etish, avvalo, sohaning huquqiy asoslarini zamon talablari asosida takomillashtirish va yangicha uslub hamda vositalarni amaliyotga keng joriy etishni taqozo etadi.

Shu yil 13-fevralda qabul qilingan “O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi qonun bu borada muhim dasturlamal bo'ldi. Hujjatda mehnat munosabatlari takomillashtirish bilan bog'liq qator yangiliklar o'z aksini topdi.

— “O'zbekiston — 2030” strategiyasida har bir inson o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlar yaratish borasida muhim chora-tadbirlar belgilangan, — deydi Oliy Majlis Senati Budget va iqtisodiy islohotlar qo'mitasi raisi Erkin Gadoyev. — Ushbu maqsad va rejalarni ro'yobga chiqarish uchun har bir yilga o'ziga xos nom berib, shu asosda davlat dasturlari ishlab chiqilmoqda. Bu jabhadagi ishlarni yanada rivojlantirish uchun amaliy ishlar bilan bir qatorda milliy qonunchilgimizni takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

“O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi qonunda ana shunday ko'plab yangi normalar o'z ifodasini topdi. Mehnat shartnomasi elektron shaklda ham tuzilishi mumkinligi shunday qulayliklardan biri. Mehnat shartnomasi xodim va ish beruvchi o'rtasida tomonlarning huquq va majburiyatini belgilovchi kelishuv bo'lib, mehnat munosabatlari tartibga solishda muhim hujjatlardan biri hisoblanadi. Endilikda uning elektron shaklda ham tuzilishi mehnat faoliyatini to'g'risidagi axborotdan qulay foydalanish imkoniyatini kengaytiradi. Elektron shakldagi mehnat shartnomasi qonunchilikda belgilangan tartibda “Yagona milliy mehnat tizimi” idoralararo dasturiy-apparat majmuidagi rasmiylashtiriladi. Shuningdek, xodim bilan tuziladigan mehnat shartnomasida ko'rsatiladigan rekvizitlar tarkibidan soliq to'lovchining identifikatsiya raqamini ko'rsatish talabi chiqarib tashlandi.

kiritish to'g'risida”gi qonunda ana shunday ko'plab yangi normalar o'z ifodasini topdi.

Sir emas, oxirgi yillarda qabul qilingan qator me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ishga qabul qilishda talab etiladigan hujjatlar qisqargan bo'lsa-da, Mehnat kodeksida bu qoida aks etmagani uchun ayrim ish beruvchilar hali-hamon ularni talab qilmoqda. Bu esa ishga kirayotgan xodimlarning ortiqcha ovoragarchilik va xarajatlarga sabab bo'layotgan edi.

Endilikda davlat organlari va tashkilotlari ishga qabul qilish chog'ida ishga kirayotgan shaxs taqdim etishi kerak bo'lgan hujjatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni tegishli davlat organlari va tashkilotlaridan mustaqil ravishda, shu jumladan, axborot tizimlaridagi idoralararo integratsiyalashuv platformalari orqali so'rab oladi. Ushbu norma o'rindoshlik asosida ishga qabul qilishda ham tatbiq etiladi.

Xalqimizda “Yaxshi dam — mehnatga hamdam” degan purma'no hikmat bor. Darhaqiqat, ishdan keyin mironqib hordiq chiqarish, avvalo, inson sog'lig'ini asrash, qolaversa, mehnat umumdorligini oshirishda yaxshi samara berishi zamonaviy tadqiqotlarda isbotini topgan. Bu borada xodimlarga har yili beriladigan mehnat ta'tili muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu davr mazmunli dam olib, sog'liqni yaxshilash uchun qulay fursatdir.

So'nggi yillarda qonunchilgimizga kiritilgan o'zgarishlar natijasida xodimlarning yillik asosiy ta'tili muddati davomiyligi ko'paytirilib, xalqaro standartlarga muvofiqqlashtirildi. Yangi qonunga ko'ra, bunday imkoniyatlar yanada kengaytirilyapti.

Jumladan, har yilgi mehnat ta'tili vaqti uchun haq to'lashda hamda mehnat shartnomasi bekor qilinganda xodimga barcha foydalanilmagan har yilgi asosiy va qo'shimcha mehnat ta'tillari uchun pulli kompensatsiya to'lashda yakshanba kuni inobatga olinmasligi aniq belgilab qo'yilmoqda.

Xotin-qizlarning jamiyatdagi faolligini oshirish, onalik va bolalikni muhofazalash borasida keng qamrovli islohotlar kechmoqda. Xususan, opa-singillarimizning o'z salohiyatini namoyon etishi, turli sohalarida munosib mehnat qilishi va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ishtirokini kuchaytirish doimiy e'tibordir.

Mehnat munosabatlari tartibga soluvchi huquqiy hujjatlarda ayollarning mehnat huquqlarini ta'minlovchi, ularning ijtimoiy himoyasini kafolatlovchi qator normalar kiritilgan. Jumladan, teng qiymatli mehnat uchun erkaklar va ayollarga teng miqdorda haq to'lanishini ta'minlash lozimligi belgilab qo'yilgan.

Shuningdek, homilador ayollarni yillik mehnat ta'tilidan chiqarib olishga yo'l qo'yilmasligi, bolani parvarishlash ta'tilidan foydalanayotgan xodimga yillik mehnat ta'tili, uning uxshishga ko'ra, bolani parvarishlash ta'tilidan oldin yoxud undan keyin berilishi kabi imkoniyatlar yaratilgan.

Biroq bunday muhim islohotlarga soya soladigan qator muammolar ham uchrab turishi sir emas. Homilador yoki yosh bolali ayollar ishga kirishda muayyan to'siqlarga uchrashi bilan bog'liq holatlar bunga misol bo'ladi. Endilikda homiladorligi yoki farzandlari borligi bilan bog'liq sababga ko'ra ishga qabul qilinishi rad etish, ishdan bo'shatish yoki ish haqini kamaytirish taqiqlangani ularning huquqlari muhofazasini yanada kuchaytiradi.

Bir so'z bilan aytganda, mazkur qonunda aks etgan muhim tamoyillarning ro'yobga chiqarilishi aholining kafolatlangan mehnat huquqlarini kuchaytirish, ishga qabul qilishda noqonuniy rad qilish holatlarning oldini olishga zamin yaratadi. Axborot texnologiyalarini qo'llash va raqamlashtirish orqali sohada ochiqlik, shaffoflik ta'minlanishi esa byurokratik va korrupsiyaviy holatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Bahor XIDIROVA,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri



XOTIN-QIZLAR HUQUQI VA IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH

ADOLAT VA BARQARORLIK YO'LIDIR

“

Har bir xotin-qizga e'tibor va hurmat ko'rsatish, fikr va g'oyalarni amalga oshirishi uchun imkon berish jamiyat tinch va barqaror bo'lishining kalitidir. Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning huquqlarini mustahkamlash va ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash yo'nalishidagi izchil islohotlar oilalardagi ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi, pirovardida yurtimiz taraqqiyotining asosini tashkil etadi.



Zulayho MAHKAMOVA,
Bosh vazir o'rinbosari — Oila
va xotin-qizlar qo'mitasi raisi

Boshlanishi 1-betda

Xalqaro maydonda mamlakatimiz nufuzi oshmoqda

Dastur va loyihalar doirasidagi izchil sa'y-harakatlar O'zbekistonning xalqaro maydondagi imiji, xalqaro reyting va indekslardagi o'rni joriy ta'sir ko'rsatmoqda.

Jahon banki tahlillariga ko'ra, O'zbekiston so'nggi yillarda gender tenglikka erishish yo'lidagi islohotlari bilan eng katta muvaffaqiyatga erishgan besh mamlakat — Jordaniya, Malayziya, Syerra-Leone va Togo qatoridan o'rin olgan.

Bu hammasi emas: “2022-yil oktabr oyidan buyon O'zbekistonda xotin-qizlarning mavqei oshirishga qaratilgan to'rtta muhim huquqiy islohot amalga oshirildi”, deyiladi Jahon banki hisobotida. O'zbekiston reytingda 11,9 punkt ko'tarilib, mamlakat “Ayollar, biznes va qonun 2024” indeksida maksimal 100 balldan 82,5 ball to'pladi.

O'zbekiston Singapur, Turkiya va Birlashgan Arab Amirliklari bilan bir xil ball to'pladi, shuningdek, Markaziy Osiyoda eng yaxshi natija ko'rsatdi”, deyiladi hisobotida.

Ochiq gender ma'lumotlari indeksi butun dunyo bo'ylab genderga oid ma'lumotlar mavjudligi va ochiqligini baholaydi. Open Data Watch tashkilotining so'nggi hisobotida O'zbekiston 69,7 ball to'plagan holda Ochiq gender ma'lumotlari indeksida jahondagi eng yaxshi 20 mamlakat orasidan joy olgani qayd etilgan. Vaholanki, 2023-yilda O'zbekiston 37 ball to'plagan holda 56-o'rinni egallagandi. Mamlakatimizda xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarning nufuzli xorijiy tashkilotlar tomonidan xolis baholanishi kelgusida baland marralarni zabt etishga ruhlaniradi.

Ijtimoiy-siyosiy hayot va parlamentda gender tenglik

Bugun xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ulushi 35, tadbirkorlik sohasida 45, siyosiy partiyalar tarkibida esa 49 foizga yetdi. Boshqaruv xodimlari orasida xotin-qizlar ulushini 2030-yilgacha 30 foizga yetkazish talabi davlat korxonalarning ijro organlari, jumladan, direktorlar va kuzatuv kengashlari tarkibini shakllantirishga ham tatbiq etilishi belgilandi.

Ayni vaqtda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining 38 foizi, Senat a'zolarining 27 foizi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahri kengashlari deputatlarining 32,6 foizi ayollardan iborat.

Bu esa mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy maydonda xotin-qizlarga ishonch yuqori ekani, bu borada yaratilayotgan imkoniyatlar samara berayotganining yorqin ifodasidir. Yangi deputatlar orasida ayollar va yoshlar ulushi taxlillarining ahamiyatga ega bo'lib, xalq vakillarining 57 nafarini ayollar tashkil etgani mintaq uchun eng yuqori ko'rsatkich hisoblanadi. Bu ko'rsatkichlar



O'zbekistonning gender tenglik borasidagi ishlari haqiqiy yangilanish va jahon miqyosida tan olinishining tasdiqi'dir.

Milliy parlamentlar bo'yicha xalqaro reytingda (IPU Parline) O'zbekiston parlamentdagi xotin-qizlar salmog'i bo'yicha jahondagi 193 davlat orasida 49-o'rindan 34-o'ringa ko'tarilgani davlatimizning demokratiya va gender tenglik sohasidagi katta yutuqlaridan dalolat beradi.

Yangi O'zbekistonning kelajagi yanada barqaror va tenglikka asoslangan bo'lishi uchun vazirlik va idoralar, mahalliy hokimliklarda gender tenglikni ta'minlash va xotin-qizlarning boshqaruvdagi ishtirokini oshirish amaliyoti davom etadi.

Ta'lim bilan qamrov ko'rsatkichlari

Mamlakatimizda xotin-qizlarning ta'lim olishi va kasbiy ko'nikmalar oqitirishiga har tomonlama ko'maklashish uchun qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Birinchidan, ehtiyojmand oilalardagi xotin-qizlarga umumiy kvotaning 4 foizi miqdorida (2 mingga o'rin) grant ajratilib, talabgorlar Oila va xotin-qizlar qo'mitasi tavsiyanomasi bilan davlat granti asosida imtiyozli o'qishga qabul qilinishi yo'lga qo'yilgan edi.

Shu asosda 2020-2024-yillarda ehtiyojmand 8653 xotin-qiz oliy ta'lim muassasalariga qo'shimcha davlat granti asosida o'qishga qabul qilindi.

Ikkinchidan, 5 yillik mehnat stajiga ega, lekin oliy ma'lumotli bo'lmagan 500 xotin-qizga qo'mita tomonidan tavsiyanomalar berish tizimi orqali xotin-qizlarni oliy ta'lim muassasalariga to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilish tartibi joriy etildi. Bu tizim asosida 2022-2024-yillarda 1256 xotin-qiz oliy ta'lim muassasalariga imtiyozli ravishda o'qishga qabul qilindi.

Uchinchidan, 2021-yildan boshlab muhtoj yolg'iz ayollar va boquvchisini yo'qotgan qizlarning oliy ta'limdagi kontrakt to'lovini qoplab berish tartibi yo'lga qo'yildi. 2021-2024-yillarda 6000 ga yaqin talaba xotin-qizning kontrakt to'lovi mahalliy byudjet mablag'i hisobidan qoplandi.

To'rtinchidan, davlat oliy ta'lim muassasalari magistratura bosqichida o'qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to'lovi qoplab berilishi tizimi joriy qilinishi hisobiga 2022-2024-yillarda 15 mingdan ziyod magistrant qizning kontrakt summasi to'lab berildi.

Beshinchidan, oliy ta'lim muassasasi, texnikum va kollejlarda kunduzgi ta'limda o'qiyotgan xotin-qizlar kontraktini to'lash uchun 7 yilga foizsiz kredit berish tartibi joriy etildi. O'tgan qisqa muddatda 181,5 mingdan ziyod talaba xotin-qizga 7 yil muddatga foizsiz ta'lim krediti ajratildi. Natijada oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan 1 million 479 ming 384 talabaning 52,2 foizini xotin-qizlar tashkil etmoqda. Bu ko'rsatkich 2017-yildagi 39 foizga nisbatan sezilarli oshgani ta'lim imkoniyatlari xotin-qizlarimiz hayotida aks etayotganini ko'rsatadi.

Shuningdek, magistratura bosqichida tahsil olayotgan 24 ming talabaning 60 foizi yoki 17 mingdan ziyodi xotin-qizlardir. Bu ko'rsatkich 2018-yilga nisbatan 3,8 barobar ortgan. 2023-yildan boshlab esa kollej va texnikumlarda qurilish, transport, kommunal, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohalaridagi kasb hamda mutaxassisliklar bo'yicha xotin-qizlar to'liq grant asosida o'qishga qabul qilinadigan bo'ldi.

Yangi ish o'rinlari va tadbirkor ayollar

Davlatimiz rahbari 2024-yili xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan o'tkazilgan tadbirida xotin-qizlar bandligini ta'minlash, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, mehnat bozorida talab yuqori kasb-hunarlariga o'qitish barcha mas'ullarning asosiy vazifasi ekanini belgilab, bu yo'nalishda “favqulodda holat” e'lon qildi.

2024-yilda 889 ming 567 xotin-qizning bandligini ta'minlashga ko'maklashildi. Jumladan, 284 ming 41 xotin-qiz mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitildi. Birgina mana shu yo'nalishni 2017-yil bilan solishtirganda o'sha yili qamrov bor-yo'g'i 4200 nafarni tashkil etganini hisobga olsak, qisqa muddatda bu jarayon qanchalik jadallashib ketgani, unga ehtiyoj va talab nihoyatda katta bo'lganini anglash qiyin emas.

Shuningdek, 197 ming 789 xotin-qizga 3,3 trillion so'mlik kredit ajratildi. Natijada tadbirkor ayollar ulushi 2017-yildagi 21 foizdan 45 foizga ko'tarildi. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish, o'zini o'zi band qilish istagidagi 43 ming 504 xotin-qizga 240 million so'mlik subsidiya berildi. Bundan tashqari, xotin-qizlarni pillachilikka keng jalb qilish uchun 967 ming



nafarining ipak qurti parvarishlashda bandligi ta'minlandi. 2024-yilning o'zida 520 dan ortiq mahallada xotin-qizlar bandligini ta'minlash va salomatligini mustahkamlash markazi ochildi.

Xotin-qizlar bandligini ta'minlashga ko'maklashish maqsadida 5 ta tuman tajribasi mamlakat bo'yicha ommalashtirildi. Jumladan, xonadonlarda uchtdan ortiq daromad manbaini yaratish bo'yicha Sayxunobod tajribasi, hunarmandchilikni rivojlantirish orqali ayollar bandligini ta'minlash bo'yicha Jondor tajribasi, aholi daromadini oshirish — xonadonda moliyaviy paketlarini joriy qilish bo'yicha Nishon, Shofirkon tajribasi, xotin-qizlar bandligini ta'minlashga qaratilgan kooperatsiyalar tashkil etish bo'yicha Bag'dod tajribasi, kashthilik maktabi va qo'y yungini qayta ishlashni yo'lga qo'yish bo'yicha Shahrisabz tajribasi keng joriy etildi.

Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan hamkorlikda “Xotin-qizlar bandligini ta'minlash” yagona avtomatlashtirilgan monitoring axborot platformasi ishga tushirildi hamda tegishli tizimlar bilan integratsiya qilindi.



Tadbirkor xotin-qizlar hamda tadbirkorlik qilish istagidagi ayollarning biznes loyihalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida iqtisodiy idoralar bilan birga mamlakatning barcha hududlarida “Ayollar biznesini qo'llab-quvvatlash” uchrashuv-muloqotlari tashkil etilmoqda.

Ishsiz xotin-qizlar xatlovi natijalariga ko'ra, mahalla, tuman, shahar va hududlarning 2025-yilda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, bandligini ta'minlash, tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish, oila institutini mustahkamlashga qaratilgan dasturlari, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari bo'yicha “ombor” kitobi ishlab chiqildi.

Bunday dasturlar xotin-qizlarning ijtimoiy rolini mustahkamlab, ularni biznes va ishlab chiqarish jarayoniga faol jalb etishga xizmat qiladi. Zero, har bir ayolning hayotidagi kichik qadamlar butun boshli mamlakat taraqqiyotiga etuvchi katta islohotlarga aylanadi.

“Mas'uliyatli ota-onalik” loyihasi

“O'zbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirish borasida “Oilalar mustahkamligi uchun barchamiz mas'ulimiz”, “Farovon oila — kelajak poydevori” tamoyillari asosida oilaviy, milliy-axloqiy qadriyatlarini mustahkamlash bo'yicha konseptual vazifalar belgilab berilgan.

“Tibbiy ko'mak berilishi lozim bo'lgan xotin-qizlar bilan ishlash tartibi” joriy etildi. Unga ko'ra, 99 ming 976 xotin-qizga tibbiy maslahatlar (targ'ibot tadbirlari) berildi hamda aksariyatini sog'lom turmush tarziga qaytarishga erishildi.

“Sog'lom oila — kelajak poydevori”, “Erta va yaqin qarindoshlar nikohiga qarshi birga kurashamiz” risolalari, “Reproduktiv salomatlik tamoyillari” mavzusida tibbiy axborot materiallari ishlab chiqilib, mahallalardagi xotin-qizlar faollariga yetkazildi. Reprodukativ maslahatga muhtoj xotin-qizlar bilan ishlash tartibi yaratildi. 337 ming 654 xotin-qiz bilan individual ishlandi. Natijada qariyb 224 mingi sog'lom turmush tarziga qaytdi.

80 mingdan ziyod sport musobaqasi o'tkazilib, unda 2,8 milliondan ortiq xotin-qiz ishtirok etdi. Xususan, vazirlik, idora va tashkilotlar xodimlari hamda oila a'zolari o'rtasida oilaviy sportni rivojlantirish maqsadida 25 ta jamoada 300 dan ziyod ayol va farzandlari ishtirokida Gimnastra festivali o'tkazildi. 298 mingdan ortiq targ'ibot tadbiri tashkil etildi, 206 mingdan ziyod targ'ibot materiali berildi.

Ayollarni ehtiyojmandlikdan chiqarish — ustuvor vazifa

“Ayollar daftari”ga kiritilgan 1 million 237 xotin-qizning qariyb 995,5 ming nafariga yordam berildi. Ularning 549 mingga yaqini yangi ish o'rinlari va jamoat ishlariga joylashtirildi. 36 mingga yaqiniga tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishi uchun 362,4 milliard so'mlik imtiyozli kredit ajratildi.

Boquvchisi yo'q, nogironligi va nogiron farzandlari bor 404,5 ming ayolga 402,8 milliard so'mlik bir martalik moddiy yordam berildi. Uy-jogva muhtoj, ehtiyojmand 5891 xotin-qizning 432 nafari uy-jog bilan ta'minlandi, 5459 nafariga ijara kompensatsiyasi to'lab berildi. 210,5 ming xotin-qiz va ularning voyaga yetmagan 48,5 ming farzandi tibbiy ko'rikdan o'tkazildi.

Shuningdek, 180 mingdan ziyod xotin-qizga huquqiy yordam ko'rsatildi. 2682 nafariga dehqonchilik bilan shug'ullanish uchun jami 725 gektar yer ajratildi. Oliy o'quv yurtida tahsil olayotgan 388 xotin-qiz va “Ayollar daftari”dagilarning 150 nafar farzandi o'qishi uchun kontrakt to'lovining bir qismi to'lab berildi.

Bu kabi ko'rsatkich va imkoniyatlar, avvalo, ijtimoiy himoyaga muhtoj, og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga samarali yordam berishga qaratilgan. Ular turli qiyinchiliklarni yengib o'tib, yangidan hayotga qadam qo'yishi uchun davlat tomonidan ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik o'ziga xos rag'bat va qo'llab-quvvatlovdir.

“Xavfsiz oila” tamoyili amalda

Yangi O'zbekistonda ayollar va bolalar huquqlarini ta'minlash hamda har tomonlama himoya qilish uchun xalqaro standartlarga asoslangan huquqiy va institutsional baza shakllantirildi.

Mamlakatimizda “Aylol e'zozlash — e'zgulik va adolat mezonini” degan g'oyani

hayotga tatbiq etish maqsadida ayollarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy, huquqiy, psixologik, tibbiy yordam berish tizimi yo'lga qo'yildi.

Jamiyatda xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikka murosasiz muhit yaratish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash uchun izchil chora-tadbirlar ko'rilmogda. “Zo'ravonlikka qarshi 16 kun” kampaniyasi va xalqaro konvensiyalar asosida O'zbekistonda jamiyatdagi barqarorlikni mustahkamlash uchun kompleks ishlar bajarilmoqda.

“Aylol e'zozlash — e'zgulik va adolat mezonini” degan g'oyani hayotga tatbiq etish maqsadida ayollarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy, huquqiy, psixologik, tibbiy yordam berish tizimi yo'lga qo'yildi. O'tgan yilning o'zida tazyiq va zo'ravonlikning oldini olish borasida 2 ta qonun, Prezidentimizning 1 ta qarori, Vazirlar Mahkamasining 2 ta qarori qabul qilindi.

2024-yilda “Xavfsiz oila” moduli orqali 156 mingdan ortiq oiladagi nizolalar hal etildi, 74 ming 278 oila yarashirildi, 13 ming 57 xotin-qizga himoya orderi berildi. Yanvar oyida 42,5 mingga yaqin oiladagi nizolar tahlil qilinib, qariyb 11 ming oilaning muammolarini hal etish chorasi ko'rildi, 579 nafariga himoya orderi taqdim etildi. Bu amaliy ishlar jamiyatda xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikka barham berish va ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilashga yordam beradi.

Oilaning ta'lim-tarbiyaviy salohiyatini mustahkamlash, jamiyatda oilaviy qadriyatlarini saqlash, ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilash va farovonlik darajasini oshirish hamon jamiyatimizdagi dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Oila institutini mustahkamlash, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarni yangicha yondashuv asosida olib borish, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, huquqiy savodxonligini oshirish, psixologik yordam berish, mustahkam, totuv va baxtli oila yaratishga ko'maklashish, oilaviy nizolarni hal etishda mediatorlik institutini rivojlantirish, tez daromad topadigan kasb-hunar o'rganish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish maqsadida joylarda “Oila va xotin-qizlar maskanlari” tashkil qilinmoqda. Jumladan, Jalaquduq, Bag'dod, Uychi, Oqdaryo, Shayxontohur, Vobkent, Olot, Qorovulbozor, Buxoro, Bandixon, Qumqo'rg'on, Amudaryo, Shumanay tumanlarida hamda Ohangaron, Olmalik, Kogon shaharlarida “Oila va xotin-qizlar maskanlari” ochilib, faoliyati yo'lga qo'yildi.

Kelgusida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, oilaviy nizolarning oldini olish hamda xotin-qizlarga huquqiy-tibbiy va psixologik yordam ko'rsatish maqsadida barcha tumanlarda “Oila va xotin-qizlar maskanlari” faoliyatini yo'lga qo'yish rejalashtirilgan.

Har bir xotin-qizga e'tibor va hurmat ko'rsatish, fikr va g'oyalarni amalga oshirishi uchun imkon berish jamiyat tinch va barqaror bo'lishining kalitidir. Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning huquqlarini mustahkamlash va ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash yo'nalishidagi izchil islohotlar oilalardagi ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi, pirovardida yurtimiz taraqqiyotining asosini tashkil etadi.



UY-JOY SOTIB OLISHDA YENGILLIK

IPOTEKA KREDITLARI UCHUN SUBSIDIYA BERISHGA ARIZALAR QABULI BOSHLANDI

Boshlanishi 1-betda



Kun mavzusi

TARTIBI VA TALABI QANDAY?

— Subsiidiya ipoteka kreditlari asosida birlamchi bozordan kvartira sotib olish uchun boshlang‘ich badal va kredit foizining bir qismini qoplash maqsadida davlat tomonidan beriladigan va qaytarilmaydigan moliyaviy ko‘makdir, — deydi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bosh mutaxassisi Shohruxbek G‘aniyev. — U ipoteka kreditlari bo‘yicha boshlang‘ich badal va foiz xarajatlarining bir qismini qoplash maqsadida ajratiladi. Joriy yilgi tartibga ko‘ra, subsidiya fuqaroga uy-joy sotib olishda dastlabki badalning bir qismini qoplash uchun qat‘iy belgilangan 30 million so‘m va ipoteka kreditining birinchi besh yili davomida foiz to‘lovlarining bir qismini qoplash uchun Markaziy bankingning asosiy stavkasi (13,5 foiz)dan oshgan qismiga to‘lanadi. Tegishli mablag‘ davlat byudjetidan fuqaro nomiga bankda ochilgan hisobvaraqqa o‘tkaziladi. O‘zbekistonning 18 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan fuqarolari ipoteka krediti uchun subsidiya olishga ariza topshirishi mumkin. Talabgorlar elektron tizim orqali ijtimoiy mezonlar asosida baholalanadi va ijobiy xabarnomaga ega bo‘lgan qatorda subsidiya ajratiladi.

Demak, subsidiya hech qanday shartlarsiz ajratiladigan va qaytarilmaydigan yordam puli bo‘lib, shu jihatlar bilan tijorat banklari tomonidan muayyan shartlarda beriladigan kreditdan farq qiladi. Bunday beminnat mablag‘ni olishga talabgor ko‘p bo‘lishi tabiiy. Limit esa cheklangan, ammo har yili oshirib borilyapti. Ma‘lumotlarga ko‘ra, o‘tgan yili 20 ming fuqaroga 2,2 trillion so‘m subsidiya ajratilgan bo‘lsa, joriy yil bu raqam 30 ming fuqaroga 2,5 trillion so‘m etib belgilandi. Ammo har gal arizalar soni limitdan oshib ketadi, natijada barcha mezonlarga javob bergan va omadi chopchalaningna subsidiyaga ega bo‘ladi. Shu kunlarda esa ko‘pchilikni ipoteka krediti uchun subsidiya kimga va qanday shartlar asosida berilishi qiziqitmoqda.

Joriy yilning 21-fevral kuni Prezidentimizning “Uy-joy va ipoteka bozorini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilinib, bu yilgi ipoteka kreditlari bo‘yicha subsidiyalar to‘lashning maqsadli ko‘rsatkichlari tasdiqlandi. Bunda subsidiya olishga talabgor o‘z hududidagi Davlat xizmatlari markazlariga bevosita borgan holda yoki

“my.gov.uz” yagona interaktiv portali orqali ariza topshirishi mumkin. Arizada ko‘rsatilgan ma‘lumotlar asosida fuqaro “subsidiya.idm.uz” avtomatlashtirilgan elektron platformasi orqali Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan qabul qilingan nizom tartibiga ko‘ra, subsidiya ajratiladigan fuqarolarni baholashning ijtimoiy mezonlari asosida real vaqt rejimida baholalanadi.

Jarayonda ariza beruvchi yoki uning oilasining daromadi, hozirgi turar joy maqomi, ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan ayrim shaxslar toifasiga kirishi, ariza beruvchi va uning oilasidagi shaxslarning “Tibbiy-ijtimoiy ekspertiza” elektron axborot tizimidan ro‘yxatdan o‘tganini tekshiriladi. Har bir ijtimoiy mezon bo‘yicha fuqaroga ball beriladi hamda talabgor 30 va undan ko‘proq ball to‘plashi lozim bo‘ladi. Masalan, ariza beruvchi va oilasining daromadlari 5 yoki 10 ball bilan baholansa, “Tibbiy-ijtimoiy ekspertiza” elektron axborot tizimidan ro‘yxatdan o‘tgan shaxslarga qo‘shimcha 5 ball beriladi.

Hozir subsidiya beriladigan shaxslarni tanlab olish va baholash jarayonlari to‘liq avtomatlashtirilgan. “Subsidiya.idm.uz” dasturiy ta‘minot tizimi tegishli tashkilotlarning elektron ma‘lumotlar bazalarini bilan integratsiya



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

my.gov.uz

Subsidiya olishga talabgor o‘z hududidagi Davlat xizmatlari markazlariga bevosita borgan holda yoki “my.gov.uz” yagona interaktiv portali orqali ariza topshirishi mumkin. Arizada ko‘rsatilgan ma‘lumotlar asosida fuqaro “subsidiya.idm.uz” avtomatlashtirilgan elektron platformasi orqali Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan qabul qilingan nizom tartibiga ko‘ra, subsidiya ajratiladigan fuqarolarni baholashning ijtimoiy mezonlari asosida real vaqt rejimida baholalanadi.

qilingan. Mazkur ma‘lumotlar bazalarida ariza beruvchining ma‘lumotlari 3 ish kuni davomida tekshiriladi. Xususan, Adliya vazirligi oila tarkibi, ariza beruvchining turmush o‘rtog‘i va yolg‘iz ona, beva yoki ajrashgan ayollar toifasiga mansubligi haqidagi ma‘lumotlar to‘g‘ri kiritilgani, Kadastr agentligi ariza beruvchi va uning turmush o‘rtog‘i nomida turar joy mavjud

yoki mavjud emasligi, Soliq qo‘mitasi ariza beruvchi va uning oila a‘zolarining o‘rtacha oylik daromadlarini tekshiradi va hokazo.

— Ariza beruvchi va uning oilasi daromadlari mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori asosida yashash hududiga qarab baholalanadi, — deydi Shohruxbek G‘aniyev. — Yangi tartibga ko‘ra, subsidiyaga ariza berilganda, ariza



beruvchi va turmush o‘rtog‘ining o‘rtacha oylik daromadlari miqdori belgilangan me‘yorlardan kambo‘lsa, talabgorning xohishi bilan daromadlar hisob-kitobiga ularning yaqin qarindoshlari daromadlari ham kiritilishi mumkin. Amaldagi qonunchilikka ko‘ra, yaqin qarindoshlar sirasiga qarindosh yoki quda tomondan qarindosh bo‘lgan shaxslar, ya‘ni er-xotinning ota-onasi, tug‘ishgan va o‘gay aka-uka, opa-singillari, farzand va farzandlikka olinganlar, bobo-buvi, nevaralar kiradi. Baholash jarayonida daromad darajasiga qarab 5 yoki 10 ball beriladi. Bunda arizachi yoki turmush o‘rtog‘i (shu jumladan, kafil sifatida keltirgan yaqin qarindoshlari)ning o‘rtacha daromadi miqdori belgilangan. Bu Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 2,7 baravaridan 8 baravarigacha (hozir 3,11-9,24 million so‘m), Toshkent shahrida esa mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 2,7-9,2 baravari (hozir 3,11-10,62 million so‘m) bo‘lishi zarur. O‘rtacha oylik daromadlar bo‘yicha ball berilmagan taqdirda, subsidiya ajratish rad etilishi mumkin. Tartibga ko‘ra, so‘nggi uch oyning kamida bir oyida daromadga ega bo‘lish talab etiladi.

Ipoteka krediti uchun subsidiya olish ko‘pchilik o‘ylaganidek o‘ta murakkab jarayon emas. Mutaxassislarning ta‘kidlashicha, asosiy muammo belgilangan talablarga javob bermaslik yoki arizada ma‘lumotlarni noto‘g‘ri kiritishda ko‘zga tashlanadi. Natijada fuqaroga subsidiya ajratilmaydi. Masalan, ariza buruvchi, jumladan, turmush o‘rtog‘ining nomida respublikaning barcha hududlari miqyosida mulk huquqi bilan turar joy mavjud bo‘lmagligi lozim, aks holda, subsidiya ajratish rad etiladi. Qolaversa, taqdim etilgan ma‘lumotlar noto‘g‘ri yoki soxta bo‘lganida, ilgari ipoteka kreditlari bo‘yicha subsidiyadan foydalangan fuqarolar va ularning turmush o‘rtog‘lari tomonidan takroriy murojaat bo‘lganida kiritilgan ariza rad etilishi mumkin. Ammo bularga bog‘liq bo‘lmagan boshqa omil ham bor. Ya‘ni ariza barcha talablarga javob bergan taqdirda ham agar joriy yilda hudud uchun ajratiladigan subsidiya soni tugagan bo‘lsa, talabgor subsidiya ajratilganlar qatoriga kirmasdan qoladi. Bunda arizani birinchi bo‘lib topshirganlarga ustunlik beriladi. Demak, talabgor arizani qancha erta topshirsa, shuncha yaxshi.

Subsidiya ajratilishi to‘g‘risida ijobiy xabarnoma olgan fuqarolarga esa tegishli tartibda subsidiya to‘lab beriladi. Bunda fuqaro birlamchi bozordan kvartira sotib olish to‘g‘risida quruvchi bilan shartnoma tuzadi hamda tegishli hujjatlar asosida ipoteka krediti olish uchun Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan hamkorlik memorandumini tuzgan tijorat bankiga murojaat qiladi. Ipoteka kreditini rasmiylashtirish jarayonida ana shu tijorat banki subsidiya mablag‘larini to‘lab beradi. Bu to‘lov faqat birlamchi bozor, ya‘ni yangi qurilgan ko‘p qavatli uylardan kvartira sotib olishga amal qiladi.

Ochig‘ini aytganda, uy-joy xarid qilish uchun to‘lab beriladigan 30 million so‘m kichik mablag‘ emas. Yana bu davlat tomonidan beminnat, hech qanday shartlarsiz berilishi ijtimoiy qiynalgan oilalar uchun katta yordam. Xalq tiliga tushgan subsidiya amaliyotining mohiyati ham shunda. Har yili ipoteka kreditlari uchun ajratilayotgan subsidiya limitlari oshib borayotgani yanada quvonarli. Endi hamma gap ana shu mablag‘larning shaffof va tizimli ajratilishida. Arizalarni baholash tizimining to‘liq elektron shaklga o‘tkazilgani shunga xizmat qiladi.

Iroda TOSHMATOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Nuqtayi nazar

Maqsud RUSTAMOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
Ibrohim TOYMUHAMEDOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning asosiy shartlaridan biri ularni moliyaviy resurslar bilan ta‘minlashdir. Shu bois, mamlakatimizda kichik va o‘rta biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning yangi tizimlari joriy qilinmoqda. Xususan, o‘tgan yili Biznesni rivojlantirish banki va Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi tashkil etilib, 35 mingdan ortiq tadbirkorga o‘rtacha 100 million so‘mdan — jami 3,5 trillion so‘m mikro kredit ajratildi. Bundan tashqari, “Biznesga birinchi qadam” dasturi bo‘yicha tadbirkorlikni endi boshlayotgan 115 ming kishiga 1 trillion so‘m mikroqarz taqdim etildi.



MIKROMOLIYAVIY TASHKILOTLAR

ULARNING IQTISODIYOT, JAMIYAT VA ODAMLAR TURMUSHIDAGI O‘RNI

Tahlillar tadbirkorlikning, umuman, jamiyatning asosiy moliyaviy ta‘minotchisi tijorat banklari bo‘lib qolayotganini ko‘rsatmoqda. Bugungi kunda yurtimizda 36 ta tijorat banki faoliyat yuritmoqda. Yangi bank tashkil etish oson emas. Chunki Markaziy bank talablari bo‘yicha joriy yildan e‘tiboran yangi tashkil etiladigan banklarning minimal ustav kapitali 500 milliard so‘mdan kam bo‘lmagligi kerak. Bunday miqdordagi kapitalni shakllantirish mushkul. Shu bois, tadbirkorlarni moliyaviy imkoniyat bilan ta‘minlashda tijorat banklarining imkoniyati yetarli bo‘lmayapti. Natijada mikromoliya bozorida nobank tashkilotlar ahamiyati oshib bormoqda.

Ayni paytda respublikamizda 193 ta nobank kredit tashkiloti mavjud bo‘lsa, ularning 100 tasi mikromoliya tashkiloti, 92 tasi lombard va bititasi ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotidir. O‘tgan yil yakunlariga ko‘ra, mikromoliya tashkilotlari tomonidan berilgan mikromoliyaviy mablag‘lar, ya‘ni kredit va mikrolizinglar miqdori 7 trillion 301,6 milliard so‘mga teng bo‘ldi. Lombardlar orqali aholiga berilgan kredit miqdori 2024-yil 1-yanvarda 279,5 milliard so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, joriy yil boshiga kelib, ularning kreditlari portfeli 415 milliard so‘mni tashkil qiladi.

Tijorat banklari va nobank tashkilotlar berayotgan moliyaviy mablag‘ miqdori oshsa-da, tadbirkorlar va aholining o‘sib borayotgan talabini to‘liq qondira olmayapti. Bundan tashqari, ushbu tashkilotlar orasidagi munosabatlar ayro holda, o‘zaro bog‘liqlik juda kam. Shuning uchun tijorat banklari va nobank tashkilotlar o‘rtasidagi

munosabatlarni yaqinlashtirish, aloqadorlikni mustahkamlash, mikromoliyalashtirish borasidagi amaliy ishlarni kengaytirish davr talabiga aylanmoqda.

O‘zbekistonda mazkur o‘talishdagi ishlar bir necha hujjat asosida tartibga solinadi. 2022-yilda qabul qilingan “Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to‘g‘risida”gi qonun hamda Prezidentimizning 2023-yil 10-noyabrda “Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda mikromoliya xizmatlarining o‘rni va ulushini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori shular sirasiga kiradi.

Mazkur qonun va qaror bilan mikromoliya tashkilotlari hamda tijorat banklari o‘rtasida bog‘lovchi bo‘g‘in yaratish, shuningdek, mikromoliya tashkilotlari uchun qo‘shimcha moliyaviy resurslar, jumladan, depozit jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida bank xizmatlarini ruxsat etilgan shartlar asosida ko‘rsatish vakolatiga ega bo‘lgan yuridik shaxs — mikromoliya banki instituti joriy qilindi. Mikromoliya tashkilotlarini tijorat banklariga yoki tijorat banklarini mikromoliya tashkilotlariga transformatsiya qilishning hujjatlari yaratildi. Bir qator qonun quyqatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

Xo‘sh, mikromoliyalashtirish deganda nimani tushunamiz? Ular biz uchun qanchalik zarur?

Mikromoliyalash umumiy holda yuridik va jismoniy shaxslarga mikroqarzlarni berishni anglatiradi. Mikromoliyalashning bank kreditlashidan farqi shuki, beriladigan mablag‘ miqdori kreditning minimal miqdoridan kam bo‘ladi. Shuningdek, nobank tashkilotlar kredit tavakkalchiligining kattaligi va shunga mos ravishda foiz stavkalari bank stavkalaridan sezilarli darajada yuqoriligi bilan ajralib turadi. Mikromoliyalashtirish iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim tarkibiy qismi sifatida hududiy joylashuvi, moliyaviy infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmagani yoki an‘anaviy bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyati cheklangan aholi qatlamlari va korxonalarga moliyaviy xizmatlar ko‘rsatishda qo‘l keladi. Garchi qaytarish foizlari yuqori bo‘lsa-da, bu omillar uning omallashuviga sabab bo‘ladi.

Tahlillarga ko‘ra, butun dunyoda 140 milliondan ortiq kishi turli mikromoliyaviy xizmatlardan foydalanadi. Ularning umumiy portfeli esa 124 milliard dollardan oshadi.

Umuman olganda, jahon tajribasi shundan darak beradiki, mikromoliyalash dastlab o‘zini o‘zi ish bilan ta‘minlashga bog‘liq bo‘lgan kambag‘al odamlarning ihsan sifatida qiziqish imkoniyatlarini olish usuli shunga yuzaga

chiqqan. Bunda to‘g‘ridan to‘g‘ri davlat yordami moliyaviy maqsadlardan tashqari ijtimoiy maqsadlarga ham ega bo‘lgan tashkilotlar orqali moliyaviy xizmatlar ko‘rsatishning bozor mexanizmlari bilan almashadi. Asosiy g‘oya juda oddiy: mikromoliyalash mijozlarning boshlang‘ich biznesini kapital bilan ta‘minlash orqali o‘zgartiradi. Bu qarz oluvchilarning daromadini oshirib, kambag‘allikni bartaraf etadi.

Mikromoliyalash innovatsiyalarni joriy etish uchun ham qo‘llanilishi mumkin. Bunda guruhli kreditlash va muddatli kreditlash usulidan foydalaniladi.

O‘zbekistonda jahon tajribasiga asoslangan mikromoliyaviy faoliyat kichik va o‘rta tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning muhim vositasiga aylanishi mumkin. Chunki yurtimiz qatlami iqtisodiy faolligini qo‘llab-quvvatlash usuli sifatida boshlang‘ich moliyaviy xizmatlar g‘oyasi juda oddiy, ya‘ni ularga tadbirkorlik orqali daromad qilish imkoniyatini berish edi. Buning uchun odamlarga tadbirkorlik maqsadlari uchun atigi 25 dollar miqdorida mikroqarz va o‘z biznesini yuritish bo‘yicha maslahatlar berildi. Yana bir jihati, birinchi kreditni o‘z vaqtida qaytargan mijozlar kattaroq miqdorda qarz olish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Bu borada xalqaro miqyosda muvaffaqiyatli yo‘lga qo‘yilgan loyihalar bir qancha.

Shulardan biri 1976-yilda Bangladeshda professor Muhammad Yunus tashabbusi bilan ishlab chiqilgan “Gramin” (Grameen Bank) loyihasidir. Aholining kam ta‘minlangan qatlami iqtisodiy faolligini qo‘llab-quvvatlash usuli sifatida boshlang‘ich moliyaviy xizmatlar g‘oyasi juda oddiy, ya‘ni ularga tadbirkorlik orqali daromad qilish imkoniyatini berish edi. Buning uchun odamlarga tadbirkorlik maqsadlari uchun atigi 25 dollar miqdorida mikroqarz va o‘z biznesini yuritish bo‘yicha maslahatlar berildi. Yana bir jihati, birinchi kreditni o‘z vaqtida qaytargan mijozlar kattaroq miqdorda qarz olish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

1983-yilga kelib, yetarli tajriba to‘plandi va Grameen Bankni aholining kam ta‘minlangan qatlamlariga, asosan, ayollarga moliyaviy xizmat ko‘rsatishga ixtisoslashgan mustaqil banka aylantirish istiqbollari ma‘lum bo‘ldi. Bank mijozlari soni dastlab 100 kishiga ham yetmagan bo‘lsa, XXI asr boshiga kelib, 45 mingdan ortiq qarz oluvchini tashkil etdi. Hozir Grameen Bank 1267 ta filiali orqali 46 mingdan ziyod aholi punktiga xizmat ko‘rsatadi. Qarz oluvchilar soni 7 milliondan ortiq bo‘lib, ularning 98 foizi ayollardir. Berilgan kreditlarning umumiy miqdori 5,1 milliard dollardan oshadi.

Grameen Banking kam ta‘minlanganlarni faol hayotga jalb qilish maqsadida moliyaviy

qo‘llab-quvvatlash loyihasining muvaffaqiyati boshqa mamlakatlarda mikromoliyalash xizmatlari rivojlanishiga turtki berdi.

Bugungi kunda bu kabi mikromoliyalash dasturlari AQSH, Fransiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Kanada, Shvetsiya va boshqa mamlakatlarda ham mavjud. Ayniqsa, 2005-yildan boshlab Fransiya keng tarqaldi. Mamlakatlarga unga aholining mustaqil tadbirkorlik faoliyatiga moliyaviy yordam ko‘rsatilib, yollanma ishchilarni o‘zini o‘zi band qilgan aholiga aylantirishning samarali usullaridan biri sifatida qaralmogda. Bu esa, o‘z navbatida, ishsizlik darajasi pasayishiga olib kelmogda.

Fransiyada mikromoliyalash dasturlari Ijtimoiy birlik jamg‘armasi tomonidan amalga oshiriladi. U o‘z biznesini qurmoqchi bo‘lgan ishsiz fuqarolar uchun kredit kafolatlarini taqdim etadi. Shuningdek, kam daromadli aholiga 500-2000 yevro miqdorida ijtimoiy mikroqarz beradi.

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda mikromoliyalash bozori, birinchi navbatda, quyidagi ijtimoiy vazifalarni hal qilish uchun samarali vosita sifatida qo‘llaniladi:

- ishsizlik darajasini pasaytirish;
- ijodiy va tadbirkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish orqali fuqarolarning ijtimoiy jihatdan noqulay toifalarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash;

- migrantlar va ko‘chib kelganlarning jamiyatga qo‘riqsiz integratsiyasini ta‘minlash.

Demak, mikromoliyalash aholining kam ta‘minlangan qatlamini qo‘llab-quvvatlashdan tortib, tadbirkorlik tashabbusini rag‘batlantirishgacha bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarning butun bir jamlanmasini hal etishga hissa qo‘shadi. Bundan xulosa qilish mumkin, mikromoliyaviy xizmatlar bozori bugun rivojlanayotgan mamlakatlarda ham, eng rivojlangan mamlakatlarda ham yetarli darajada keng tarqalgan. Mikromoliyalash dasturlaridan foydalanish moliya bozorida raqobatni oshiradi.

Har bir mamlakatda mikromoliya banklari va mikromoliyalashtirish tizimining rivojlanishi mazkur davlatning iqtisodiy rivojlanish darajasi va milliy xususiyatlari bilan belgilanadi. Iqtisodiyoti rivojlanmagan davlatlarda mikromoliyalashtirish odamlarni ish bilan ta‘minlashni qo‘llab-quvvatlash orqali kambag‘allikka qarshi kurashishning samarali vositasi sifatida qaralsa, rivojlangan davlatlarda ijtimoiy muammolarni hal qilishning samarali iqtisodiy vositasi deya bilishadi. Chunki u endilikda kichik va o‘rta tadbirkorlikni rivojlantirishning eng muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmogda. Shu bilan birga, mikromoliyaviy xizmatlar bozori o‘z funksiyalarini amalga oshirgan holda va iqtisodiy jihatdan rentabeli faoliyat turi sifatida ijtimoiy yo‘natirilgan biznesdir.

O‘zbekistonda rivojlanishi kutilayotgan mazkur tashkilotlar samarali faoliyat yuritishi uchun barcha biznes hamjamiyati vakillari — banklar, kichik va o‘rta biznes, mahalliy hokimliklar, tegishli davlat organlaridan faollik, tashabbuskor bo‘lish va keng jamoatchilik bilan hamkorlikni yanada kuchaytirish talab qilinadi.

